

EHTIYOJMAND QATLAMLARNING IJTIMOIIY HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI

*Zoitova Sitora, Chirchiq davlat pedagogika universiteti stajyor-o'qituvchi,
O'zbekiston, Chirchiq*

Annotatsiya. Kam daromadli oilalarning moddiy farovonligini oshirish, ularning munosib turmush kechirishi uchun aholining bu toifasiga davlat tomonidan moddiy yordam tayinlanadi. Ushbu maqolada mamlakatimizda ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, davlat, fuqarolar, ijtimoiy dastur, kam ta'minlangan, aholi, aholini ijtimoiy himoya qilish, tizim, "ijtimoiy himoya yagona reyestri".

МЕХАНИЗМЫ УКРЕПЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЛОЕВ НАСЕЛЕНИЯ

*Зойтова Ситора, стажер-преподаватель Чирчикского
государственного педагогического университета,
Узбекистан, Чирчик*

Аннотация. В целях повышения материального благосостояния малообеспеченных семей и обеспечения их достойного проживания государство оказывает материальную помощь этой категории населения. В данной статье рассматриваются механизмы усиления социальной защиты малообеспеченных слоев населения в нашей стране.

Ключевые слова: социальная защита, государство, граждане, социальная программа, малообеспеченные слои населения, население, социальная защита населения, система, «единый реестр социальной защиты».

MECHANISMS FOR STRENGTHENING SOCIAL PROTECTION FOR LOW-INCOME CLASSES

*Zoytova Sitora, Intern-teacher at Chirchik State Pedagogical University,
Uzbekistan, Chirchik*

Abstract. To improve the material well-being of low-income families and ensure their dignified living, the state provides financial assistance to this population group. This article examines mechanisms for strengthening social protection for low-income groups in our country.

Keywords: social protection, state, citizens, social program, low-income groups, population, social protection of the population, system, "unified register of social protection."

So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YAIMga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta'minlangan

nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobarga ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda. Xususan, davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta'lim olishiga ko'maklashishi bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi talab etilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada e'lon qilingan «ijtimoiy davlat» tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi [1]. Xususan, kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish; ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash; ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish kabilar.

Ma'lumki, kam daromadli oilalarning moddiy farovonligini oshirish, ularning munosib turmush kechirishi uchun aholining bu toifasiga davlat tomonidan moddiy yordam tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 5 martdagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 122-sonli qarorida kam ta'minlangan oilalarni aniqlash mezonlari berib o'tilgan [2]. Shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ijtimoiy nafaqalar va himoyaning boshqa turlarini tayinlash va to'lashda shaffoflikni oshirish, jarayonlarni elektronlashtirish hamda fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida qabul qilingan. Ushbu qaror orqali hududiy ijtimoiy himoya va nafaqalar tayinlash bo'limlarining vazifalari kengaytirilgan va ularning moliyaviy nazoratdagi roli kuchaytirilgan. Ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj

qatlamlariga ko'rsatilayotgan yordamning sifatini yaxshilash va mahalla tizimi bilan integratsiyalashuvni amalga oshirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 avgustda "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6277-sonli Farmonida quyidagilar belgilanib berilgan [3]. Unda bola tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya va ko'makka muhtoj oilalar moddiy ta'minotini kuchaytirish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashda umume'tirof etilgan xalqaro standartlarni va avtomatlashgan shaffof elektron baholash mexanizmlarini joriy etish orqali nafaqalarni to'lash tizimini bolalar salohiyatini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga qaratish masalasiga urg'u berilgan.

Kam ta'minlangan oilalarni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali aniqlash hamda ularga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomda, O'zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan kam ta'minlangan oilalarni "Ijtimoiy himoya yagona rekestri" axborot tizimi orqali aniqlash hamda ularga 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, hamda un va qolipli non xarid qilish bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni qoplash uchun har oylik pulli kompensatsiyani tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

"Ijtimoiy himoya yagona tizimi" – ijtimoiy himoyani amalga oshirish uchun inson omilisiz oilaning (fuqaro) ijtimoiy himoyaga muhtojligini o'zi aniqlaydigan, ijtimoiy himoyani amalga oshiradigan va uni nazorat qiladigan, xarajatlar hisobini yuritadigan avtomatlashgan axborot tizimidir [5]. Ushbu tizimning afzalligi shundaki, birinchidan, fuqarolarning ijtimoiy himoyadan foydalanishlari uchun zarur ma'lumotlar avtomatik tarzda yig'iladi va bu borada fuqarolar sarson bo'lishining oldi olinadi.

Ikkinchidan, kam ta'minlanganlikni e'tirof etish va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash yoki rad etish jarayoni maksimal darajada shaffoflashadi. Nafaqani tayinlash yoki rad etish to'g'risida qaror faqat ushbu axborot tizimi tomonidan (unga kiritilgan mezonlar asosida) qabul qilinadi, bunda hech qanday inson omili mavjud bo'lmaydi.

Uchinchidan esa, ushbu tizim ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya choralarining ma'lumotlar bazasiga aylanadi va ushbu baza orqali avtomatik tarzda barcha ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab mamlakatlar uzoq vaqtlardan beri ijtimoiy imtiyozlar va xizmatlarni oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni birlashtirish hamda mahalliy ma'lumotlar bazalari bilan masofadan turib ishlashga imkon beradigan yaxlit axborot tizimlarini yaratish yo'lini bosib o'tgan. Ularning bir qanchasida ijtimoiy himoya yagona reyestri ta'minot zanjiri vazifasini o'tayotgan bo'lsa, boshqalarida bu tizim murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va fuqarolarning bir yoki bir nechta ijtimoiy nafaqaga muvofiqligini aniqlash ishlarini bajarib keladi. Ular inklyuziv tizim sifatida ham ijtimoiy siyosat hamda axborot manbai ko'rinishidagi amaliyot roliga ega.

Hozirgi kunda 20 dan ziyod mamlakatda (Ozarbayjon, Braziliya, Chili, Xitoy, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Gruziya, Indoneziya, Makedoniya, Mali, Meksika, Chernogoriya, Pokiston, Filippin, Senegal, Turkiya, Yaman va boshqa davlatlarda) har xil ko'rinishda ijtimoiy himoya reyestrlari axborot tizimi mavjud. Biroq ular faoliyatida reyestrlarni boshqarish va ishlatish, shuningdek, qamrov darajasi hamda axborot tizimlari bazasini yuritish ishlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi [6].

Belgiya aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimining boshqaruv modeli dastlab markazlashmagan, endilikda esa, yuqori darajada birlashtirilgan ma'lumotlar bazasiga ega. U ijtimoiy himoya dasturlaridan olingan axborotlarni emas, balki ijtimoiy sektor subyektlari tomonidan to'plangan ma'lumotlarni qamrab olgan.

Belgiya rejalashtirish idorasining tadqiqotlariga ko'ra, ushbu tizimning joriy etilishi ijtimoiy idoralar uchun ma'muriy xarajatlarni yiliga 1,7 milliard yevrogacha tejash imkonini berdi va 220 turdagi qog'oz hujjatlar bekor qilindi. Bu tizim mamlakatda 30 yildan ortiq vaqt mobaynida samarali ishlab kelmoqda.

Turkiyada bu tizim yordamida ijtimoiy yordamni boshqarish bilan bog'liq barcha xizmatlar amalga oshiriladi. Belgiyadan farqli ravishda, birmuncha markazlashgan va davlat muassasalarining 22 xildagi ma'lumotlari birlashtirilgan. Osongina kirish mumkin bo'lgan bitta onlayn portalida 112 ta veb-xizmat, 10 dan ziyod ijtimoiy dasturlar taqdim etiladi.

Oldin Turkiyada ijtimoiy yordam olish uchun arizalarni tekshirish uchun 15-20 kun ketgan bo'lsa, ushbu jarayon tatbiq etilgach, ishlar taxminan 1 daqiqada hal etiladigan bo'ldi. 2010 yildan beri 30 million fuqaroning ijtimoiy yordam uchun murojaatlarini ko'rib chiqdi va umumiy qiymati 13 milliard AQSH dollar bo'lgan 311 million ijtimoiy yordam bitimlarini amalga oshirdi.

Ijtimoiy himoya yagona reyestrining vazirlik va idoralar ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalashuvining yanada kengayishi ariza berish jarayonida taqdim etish uchun talab qilinadigan hujjatlar soni qisqartirildi. Xususan, oila a'zolarining daromadlari, doimiy yashash uchun ro'yxatdan o'tganlik, oila tarkibi to'g'risidagi

va mehnat organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnomalar talab qilinmaydi. Ularning hammasi avtomatik tizimning o'zi bajaradi.

Prezidentimizning 2020 yil 4 avgustdagi "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [4] qarorida xuddi shunday ijobiy jihatlar inobatga olinib, Ijtimoiy himoya yagona reyestrini respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi va Jahon bankining moliyaviy, texnik va ekspert ko'magi asosida amalga oshirildi.

"Yagona reyestr" axborot xizmatini ishlatish bo'yicha milliy mutaxassislar jamoasi tashkil etildi. Buning natijasida barcha hududlarda mazkur tizim orqali kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar tayinlanib kelinmoqda. U 16 ta vazirlik va idoralarning ma'lumot bazalari bilan ulangan bo'lib, ijtimoiy nafaqalarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan mezonlarga asosan avtomatik ravishda amalga oshirilmoqda.

Eng muhimi, barcha ijtimoiy yordam bir xil mezon va bir xil hujjat asosida berilishi ta'minlanmoqda. Ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni 2020 yilning birinchi yarmida 600 ming nafar bo'lsa, bu ko'rsatkich ayni paytga kelib 1 million 600 mingdan oshgan.

2021 yil sentabr oyidan boshlab qayta ko'rib chiqilgan bolalar nafaqalari Yagona reyestr orqali boshqarila boshlandi. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligini oshirish maqsadida kam ta'minlangan oilalarni aniqlashda daromad mezoni sifatida minimal iste'mol xarajatlari miqdorini qo'llash tartibi yo'lga qo'yildi. Bular natijasida qisqa vaqt ichida kam ta'minlangan oilalarni aniqlashga va ularga nafaqalarni manzilli ravishda yetkazib berish imkoniyatini yaratdi. Misol uchun, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida har to'rtinchi oila ijtimoiy nafaqa olmoqda. Taqdim etilgan davlat ijtimoiy yordami, birinchi navbatda, bolali oilalarning moddiy ahvolini yaxshilashga qaratilyapti.

Xulosa qilib aytganda, Ijtimoiy himoya yagona reyestri mamlakatda ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishning umumiy strategiyasining bir qismi sifatida raqamli texnologik platformaning asosi sanaladi. Ushbu tizim moliyaviy yordamni davlat ijtimoiy, bandlik xizmatlari, nogironlik nafaqalari va boshqa imtiyozlar bilan samarali bog'lash orqali ijtimoiy himoyani inklyuziv va har tomonlama ta'minlash uchun ajoyib imkoniyatni taqdim etadi. Bugungi kunga kelib "Yagona reyestr" axborot tizimi orqali ijtimoiy nafaqalarni avtomatik tarzda tayinlash tizimi to'liq yo'lga qo'yilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilanganidek

tariqasida ijtimoiy xizmatlarni yetkazishdagi boshqaruv jarayonlarni raqamlashtirish modulini ishlab chiqish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ni integratsiya qilish ishlari olib boriladi. Shuningdek, tabiiy ofat, ijtimoiy-iqtisodiy kutilmagan vaziyatlar yoki boshqa sabablarga ko‘ra, favqulodda holatlar yuz berganida ijtimoiy himoya maxsus dasturlarini joriy etishni kiritish mumkin.

Demakki, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi nafaqat ijtimoiy xizmatlar va yordamning manzilliligini oshirish imkoniyati, balki har qanday murakkab sharoitda ham aholining ehtiyojmand qismini qisqa muddatlarda aniqlash va ularni davlat tomonidan manzilli qo‘llab-quvvatlashning shaffof va samarali vositasiga aylanib boryapti. Ushbu raqamli ezgu tizimning faoliyat doirasi kengaytib borishi har yili millionlab ehtiyojmand oilalarning dardiga darmon, ro‘zg‘orlari butligiga ham kamarbasta bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023 yildagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni. // <https://lex.uz/docs/6480342>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.03.2021 yildagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 122-son qarori. // <https://lex.uz/docs/5319768?ONDATE=30.10.2024%2000>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.08.2021 yildagi “Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6277-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5572509>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.08.2020 yildagi “Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4797-son qarori // <https://lex.uz/docs/4930653>

5. <https://gov.uz/uz/advice/64/document/2279>

6. <https://yuz.uz/news/raqamli-tizimning-savobli-amallari>

7. G‘affarova, G.G’. (2024). Kreativlik inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. 8-son. 133-137-b

8. G‘affarova, G.G’. (2024). Kreativlik falsafasi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. 6-son. 280-283-b.

9. Gulamzhanovna, G.G. (2024). The Need for Creativity in the Development of Human Capital. Miasto Przyszłości, 52, 685–690. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4698>

10. Gaffarova, G.G. (2025). The phenomenon of the «Virtue man» in the scientific heritage of Al-Farobi. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (146), 76-80.

11. Бердикулов С.Н. Роль политических партий в формирование гражданского общества в Узбекистане // SR. 2015. №1 (11). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-politicheskikh-partiy-v-formirovanie-grazhdanskogo-obschestva-v-uzbekistane> (дата обращения: 29.11.2025).

Бердикулов С.Н. Деятельность органов внутренних дел по работе с обращениями физических и юридических лиц. – 2020.